

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Yusupova Lobar Berkboy qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti pedagogika
yo'nalishi 24/1-guruh 2-kurs talabasi lobar23@mail.ru*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasida oilaning tutgan o'rni va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida farzandlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiylashuvi va sog'lom dunyoqarashga ega shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada ota-ona mas'uliyati, oilaviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy muhitda oilaning oldida turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ijtimoiy institutlar va davlat tomonidan oilani qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaviy tarbiyaning strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль семьи в воспитании всесторонне развитого поколения и её социальное значение. Семья, как основная ячейка общества, играет ключевую роль в духовно-нравственном становлении ребёнка, его социализации и формировании здорового мировоззрения. В статье рассматриваются ответственность родителей, влияние семейной среды на воспитание детей, а также актуальные задачи, стоящие перед семьёй в современном обществе. Освещаются механизмы поддержки семьи со стороны социальных институтов и государства. Результаты исследования показывают, что семейное воспитание имеет стратегическое значение в формировании гармонично развитой личности.*

Abstract: *This article analyzes the role of the family in the upbringing of a well-rounded generation and its social significance. As the fundamental unit of society, the family plays a crucial role in the moral and spiritual development of children, their socialization, and the formation of a healthy worldview. The article discusses parental responsibility, the impact of the family environment on child development, as well as the key challenges facing families in modern society. It also highlights the mechanisms of state and institutional support for families. The findings demonstrate that family upbringing holds strategic importance in shaping a harmoniously developed personality.*

Kalit so'zlar: *barkamol avlod, oila, axloqiy tarbiya, ijtimoiylashuv, shaxs kamoloti, qadriyatlar, ota-ona mas'uliyati, ijtimoiy institutlar, shaxslararo munosabatlar, mahalla, ijtimoiy rol.*

Ключевые слова: *всесторонне развитое поколение, семья, нравственное воспитание, социализация, развитие личности, ценности, родительская ответственность, социальные институты, межличностные отношения, махалля, социальная роль.*

Keywords: *well-rounded generation, family, moral education, socialization, personality development, values, parental responsibility, social institutions, interpersonal relationships, mahalla, social role.*

KIRISH

Barkamol, bilimli va sog'lom avlod tarbiyasi davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Farzand-oila hayotining mazmuni, nasl-nasabining davomchisi va oilaning mustahkam zanjiri hisoblanadi. Aqlli, o'qimishli, mehnatsevar va odob-axloqli farzand nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham boyligidir. Odatda, farzandlar oilada ham ma'nan, ham jismonan ulg'ayadi. Oila-tarbiya maskani hisoblanib, farzandni axloqiy, ma'naviy, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida dastlabki asos oila tarbiyasidan boshlanadi. Oilada tarbiya o'z kuchiga ega bo'lishi lozim. Chunki, jamiyatning ertangi kuni farzandlarning yuksak darajadagi ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqiga bog'liq. Ulug' alloma Abdulla Avloniy tarbiya haqida "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan edi. Yosh avlodni komil inson bo'lib voyaga yetishida oilaning ijtimoiy roli va ijtimoiy mavqei muhimdir. Buni shu yaqqol isbotlaydiki, shaxsning shakllanishi avvalo oiladan boshlanadi. Ma'lumki, hayot ijtimoiy taraqqiyot sari olg'a borgan sari odamlar bir-biri bilan shaxslararo munosabatlarga kirishishi tabiiy hol. Bu jarayon esa avvalo oilada, oilaviy munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa, oilada ijtimoiylashuv jarayoni vujudga kelishi bilan boshlanadi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya, oilaviy muhit, axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda istalgan inson avvalo oilada tarbiyalanadi. Oila kishilarning shunday guruhiki, uning a'zolari bir-biri bilan to'g'ridan-to'g'ri qon-qarindoshlik munosabatida bo'lib, guruhning yoshi katta a'zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi. Oila bu tarbiyaning birlamchi va ilk jarayoni vujudga keladigan qo'rg'on. Har qanday shaxs avvalo tarbiyani oilada so'ng esa ta'lim-tarbiya maskanlarida oladi. Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida takidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "Oz bolangni ozing asra" degan davat faqat quruq shior bolib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqurkirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, yani ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun masuliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qoyish vaqti keldi, deb o'ylayman" Oila-an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim – tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sirkuchiga ko'ra xech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila –bu o'ziga xos jamoadir u tarbiyada asosiy o'ringa egadir. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan xolda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiypsixologik omillarni aniq

belgilash lozim. Bolani tarbiyasida asosiysi ota-onabilan bola o'rtasidaqalban yaqinlikka va axloqiy bog'likka erishishdir. Ota-onalar xech qachon tarbiya jarayonini o'z xoliga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa katta bo'la boshlagan bolani o'z xoliga tashlabqo'ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Har doim ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o'ringa o'zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o'ylashlari kerak. Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim. 1.Bolani qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilish kerak. 2 Kattalar bolalar ko'zi bilan muammolarga qarashlari va ularning holatlarini his qilishlari kerak. Agar bola ota-onalarni xohish va istaklariga mos bo'lsa, ya'ni yaxshi o'qisa, a'lo xulqli bo'lsa yoki aksincha ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o'zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o'zgarib boradi. Oilada soglom muhit mavjud bolgandagina, ularda har tomonlama soglom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan, jismonan baquvvat, aqlan soglom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bolgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila manaviyatining tutgan orni alohidadir. Oila tarbiyasi boyicha buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda oziga xos fikr-mulohazalar bildirganidiqqatga sazovordir.Islom talimotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha takidlanadi:"Islomda tarbiya talimdan kora ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, kochada, maktabda ozini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini oziga boysundirishdek ogir ishni yolga qoyadi". Bugungi kunda uyushmagan yoshlarni oila muhitida manaviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ular orasidagi mavjud illatlarni bartaraf etishda quyidagi masalalarga etibor qaratish foydadan xoli bolmaydi: 1.Oila manaviyatini yuksaltiruvchitizimlar faoliyatini yanada yaxshilash 2.Qiz bola tarbiyasi uchun milliy qadriyatlar va an'analarimiz asosida yangi tartiblarni joriy etish 3.Jismoniy madaniyat masalasini oilaviy qadriyatlar darajasiga olib chiqish.Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimini oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma'ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o'zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o'qituvchining tutgan o'rni, ularga ta'sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy bo'lmagan misollar, umumlashtirishlar, quruq ma'ruzalar hech qanday samara bermasligini hamma tushunadi. Maktab va oila hamkorligidagi ishlarda qo'shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchilarning ota-onalarning o'zlari o'z xatti-harakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baholashlari, ma'qullash va muhokama yuritish metodlarni qo'llashdagi shaxsiy ta'sirni hisobga olish nihoyatda muhimdir. Bunday xatti-harakatlarga doir usullar, odatda, jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan bo'lishi kerak. Chunki kattalar faoliyatining ijobiy yoki salbiy baholanishi ular ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirning kuchini yo oshiradi, yoki kamaytiradi. Maktablarda ota-onalar bilan ishlashda esga solish, maslahat, taklif, iltimos, talab kabi uslublar ham mavjud bo'lib, ulami o'rni kelganda, o'z

vaqtida qo'llash yaxshi samara beradi. Ularni tatbiq etishda nihoyatda nazokatli bo'lish, kishi shaxsini hurmat qilish tavsiya etiladi.

XULOSA:

Barkamol avlod tarbiyasida oila bebaho ijtimoiy institut sifatida alohida o'rin tutadi. Har bir farzandning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy ong va faoliyati, shuningdek, shaxsiy va kasbiy shakllanishi avvalo oilaviy muhitda boshlab shakllanadi. Ota-onaning mas'uliyati, mehr-oqibati, oiladagi o'zaro hurmat, hamkorlik va ma'naviy muhit farzandning sog'lom, izlanuvchan va fidokor inson bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi omillardandir. Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga turli madaniy va informatsion ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda, oila farzandni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy jihatdan faol va mas'uliyatli shaxs etib tarbiyalashda asosiy tayanch bo'lib qolmoqda. Oila nafaqat axloqiy tarbiyaning, balki shaxslararo munosabatlar va ijtimoiylashuvning ham birlamchi maktabidir. Shu boisdan ham davlat va jamiyat miqyosida oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish – barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi strategik vazifalardan biridir. Oila mustahkam bo'lsa – jamiyat barqaror, avlodlar esa kamolotda bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 2 (7), 586-592.

2. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. Scientific progress, 3 (1), 328-334.

3. Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИАТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 2), 140-146.

4. Хамрақулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 49-51).

5. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 233-237.

6. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumutalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. In Наука сегодня: проблемы и пути решения (pp. 48-49).

7.Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 59-61).

8.Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 43-46.

9.Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdukarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 40-42.

10.Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). КПредупреждение преступности среди несовершеннолетних. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 34-35).

11.Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.

12.Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 780-783.

13.Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American journal of interdisciplinary innovations and research, 3(01), 113-117.

14.Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.

15.Xonkeldiyeva K., & Xo'jamberdiyev J. (2020). IMPROVING ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS OF INDUSTRIAL PRODUCTION. Экономика и социум, (3 (70)), 145-147.

16.Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 18-19).

17.Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In Наука сегодня: история и современность (pp. 17-19).

18.<https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/3493/3122/3081>